



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Тошкент шаҳри

Toshkent shahar, 100011, Abay ko'ch., 6-uy Tel: +998 71 244-25-67, Faks: +998 71 244-25-66, e-mail: dav_ekspertiza@mail.ru www.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: SHOBUTAIEV BOBIR A

Sana: 04-10-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 61789

Obyekt nomi «Toshkent shahar Olmazor tumani, Kichik halqa avtomobil yo'li ko'chasi, 8 – uy manzilida joylashgan «Mavjud binolarni yuridik hujjatga ega bo'lgan qismini pastki qavatida sport sog'lomlashtirish, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish binolari bo'lgan mehmonxona va ko'p qavatli turar – joy xonadonlari joylashgan majmua sifatida qayta ixtisoslashtirish va rekonstruktsiya qilish ishchi loyihasi bo'yicha (Zilzilabardoshlik va yong'in xavfsizligi bo'yicha)»

Buyurtmachi – «Olmos Blok» MChJ.

Bosh loyihachi – «Trend Design» MChJ.

Litsenziya O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan 7-iyun 2020-yilda berilgan AL-000789-son.

Moliyalashtirish manbai – O'z mablag'lari hisobidan.

Bosh pudratchi – Tanlov asosida aniqlanadi.

Qurilish turi Qayta ixtisoslashtirish va rekonstruktsiya qilish.

Murojaat raqami: № 54315

1. Loyihalash uchun asos

1. Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasining 2021 – yil 22 – iyuldagi ob'yektni qayta ixtisoslashtirish va rekonstruktsiya qilishga 1726280 – 6104 – son Ruhsatnoma.
2. 2021 – yil 30 – sentyabrdagi 1726-1726280-28876-son Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i. Muhandislik tarmoqlariga ulanish shartlari bilan birgalikda.
3. «Special Geo» MChJ tomonidan 2022-yilda ob'yektdagi muhandislik-geologiya qidiruv ishlari bo'yicha xulosasi.
4. Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi, loyiha – smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organing 2021-yil 9-dekabrdagi 33305-son xulosasi (bosh reja va fasad bo'yicha 41352558-son kelishuvi).
5. Buyurtmachi tomonidan 2021-yil 5-iyulda tasdiqlanib, rasmiylashtirilgan loyihalash topshirig'i.
6. «Olmos Blok» MChJ va «Trend Design» MChJ o'rtasida 2021-yil 30-sentyabrda rasmiylashtirilgan loyiha hujjatlarini ishlab chiqish to'g'risidagi 30/09-21-son shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

Loyiha hujjatlarining «ishchi loyiha» bosqichida quyidagi qismlardan iborat.

1. Loyihaning umumiy tushuntiri xati.
2. Loyiha bosh rejasi bo'yicha chizmalar.
3. Arxitektura va qurilish loyihaviy yechimlari bo'yicha chizmalar.
4. loyihaning konstruktiv yechimlari bo'yicha chizmalar.
5. Yoong'inni xabarlash tizimi chizmalari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

1. Qayta ixtisoslashtirish va rekonstruktsiya qilish ob'yekti hududining o'ziga xos xususiyatlari.

Toshkent shahar, Olmazor tumani, Kichik halqa avtomobil yo'li ko'chasi, 8 - uy manzilida joylashgan.

- Qurilish va iqlim zonasi - II.
- Hududning zilzilabardoshlik ko'rsatkichi - 9 ball.
- Shamolning tezligi - 0,38 kPa (38 kg/m²).
- Qorning og'irligi - 0,5 kPa (50 kg/m²).
- Yer zamini qumoq-tuproqli I-tipdagi cho'kuvchanlik hususiyatiga ega bo'lib, W4 rusumli portlandtsementli betonlarga nisbatan kuchsiz agressiv hamda temir - beton konstruktsiyalariga noagressiv hisoblanadi.
- Tuproqlarning qo'rg'oshin va alyumin qobig'li kabellariga nisbatan yemiruvchanlik faolligi - o'rtacha.
- Yer osti suvlari yer yuzasidan 2,5 - 2,6 metr chuqurlikda aniqlangan bo'lib, portlandtsementli betonlarga nisbatan kuchsiz noagressiv hamda davriy namlanuvchi temir - beton konstruktsiyalarning armaturasiga nisbatan kuchsiz agressiv hisoblanadi.
- Yerning muzlash qatlami chuqurligi - 0,7 metr.

2. Bosh reja. Arxitektura rejalashtirish yechimlari.

Qurilishga mo'ljallangan binolar Toshkent shahar Olmazor tumani, Kichik halqa avtomobil yo'li ko'chasida joylashgan. Ruxsatnoma bo'yicha ajratilgan maydonga 4 - ta (A, B, V va G) bir - biriga birlashtirib loyihalashtirilgan 12 - qavatdan iborat bo'lgan yerto'lali va texnik qavatli mavjud (13 - qavat texnik qavat) turar joy binolari va D blok yerto'lada joylashtirilgan. loyihalashtirilgan turar joy binolaridan bo'sh yerlarga bolalar maydonchasi, dam olish maydonchasi va avtoturargoh joylashtirilgan. Hudud loyiha bo'yicha obodonlashtiriladi va ko'kalamzorlashtiriladi va kichik arxitektura shakllari o'rnatiladi hamda kechki yoritkichlar o'rnatilib, hudud temir panjarali devor bilan o'raladi.

Blok "A" - 12 qavatli, yerto'la va texnik qavatli, reja bo'yicha to'rtburchak shakliga yaqin, o'lchamlari 26,4x15,0 m. o'qlari 1 - 11/A - G, 1, 2 - qavatlar balandligi 4,2 metrdan, 3 - 12 - qavatlar 3,3 metrdan, yerto'la 4,2 m. va texnik qavat o'zgaruvchan 2,0 - 3,3m. (poldan - polgacha). Binoning 1 va 2 - qavatida: oshxona, mexmonlar uchun xonalar va xojatxonalar joylashtirilgan. 3 - 12 qavatlariga 2, 3 va 4 - xonali xonodonlar joylashtirilgan.

Yerto'lada texnik xonalar va yordamchi ho'jalik xonalari joylashtirilgan.

Bino xonalarini ichki bezagida: suvli emulyasiya bo'yog'i, keramik plitkalar, laminat, tarket, plastik shiftlar va boshqa zamonaviy materiallar ishlatiladi.

Binoning tashqi byezagida: keramik granit, fasad bo'yog'i, mineral plitalar, alyumin profil va boshqa loyihalash topshirig'ida ko'rsatilgan zamonaviy materiallar ishlatiladi.

Qavatlararo aloqa ikkita zina va ikkita lift orqali amalga oshiriladi.

Blok "A"ning texnik iqsodiy ko'rsatkichlari.

Binoning qurilish maydoni – 539,16 m².

Umumiy maydoni – 5 526,08 m².

Umumiy hajmi – 23 155 m³.

Kvartiralar soni – 40 ta.

Shu jumladan:

2 – xonali 20 dona.

3 – xonali 10 dona.

4 – xonali 10 dona.

Blok "B" 12 – qavatli, yerto'la va texnik qavatli, reja bo'yicha to'rtburchak shaklida "A" va "V" bloklari bilan tutashtirilgan, o'lchamlari 35,0x18,0 m, o'qlari 1-11/D – A, 1, 2 – qavatlar va yerto'la xonalari balandligi 4,2 m texnik qavati (o'zgaruvchan) 2 – 3,3 m, 3 – 12 qavatlar 3,3 metrdan (poldan – polgacha).

Binoning 1 va 2 - qavatlarida: savdo do'konlari ofis xonalari va xojatxonalar joylashtirilgan.

Yerto'lada: savdo do'konlari va avtoturagoh joylashtirilgan.

Binoning 3 – 12 - qavatlarida 2, 3 va 4 xonali xonadonlar joylashtirilgan. Qavatlararo aloqa uchta zina va ikkita lift orqali amalga oshiriladi.

Binoning ichki va tashqi bezagi "A" blokida ishlatilgan qurilish materiallari qabul qilingan.

Binolarning fasad arxitekturasida zamonaviy usulda, vitraj oynalari hamda temir panjalar ishlatilgan.

Blok "B"ning texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari.

Binoning qurilish maydonchasi – 651,36 m².

Umumiy maydoni – 7 916,48 m².

Umumiy hajmi – 27 941 m³.

Xonadonlar soni 50 ta.

2 – xonali 30 ta.

3 – xonali 10 ta.

4 – xonali 10 ta.

Blok "V" – Binoning arxitektura rejalashtirish yechimi va texnik – iqtisodiy ko'rsatkichlari "B" blokka o'xshash va bir xil.

Blok "G" bino "A" blokka o'xshashi va iqtisodiy ko'rsatkichlari "G" blok bilan bir xil.

Blok "D" – 1 qavatli yerostida quriladigan avtoturargoh "B" va "V" bloklarning "A" o'qi tomoniga biriktirib loyihalashtirilgan. Yer osti inshooti turtburchak shaklida bo'lib o'lchamlari 70,8x14,1/m, o'qlari 1-11*/6 – 2* qavatdagi xonalar balandligi 2,9m (noldan shiftgacha). "B" va "V" bloklarning B – A o'qlari orasidagi yerto'lan ham avtoturargoh egallaydi.

Binoning ichki bezagida: loyiha bo'yicha suvli emulsiya bo'yog'i, quyma pol va boshqa materiallar ishlatiladi.

3. loyihaning konstruktiv yechimlari.

Bino – 12 qavatli yerto'lali, rejada to'g'ri to'rtburchak shaklidagi 4 ta bloklardan iborat bo'lib, o'qlar bo'yicha o'lchamlari 35,0x15,0 m va 26,4x15,0 m. Yerto'la qavatining balandligi (pol sathidan shiftgacha) – 3,6 m, sport – sog'lomlashtirish markazi va savdo – maishiy xizmat majmuasi qavatining balandligi (pol sathidan shiftgacha) – 4,0 m.

Binoning konstruktiv sxemasi – karkasli.

Poydevorlar – B 20 rusumli quyma – temirbeton poydevor plitasidan iborat.

Devorlar – M 25 rusumli qorishmada M 75 rusumli g'ishtdan terilgan temirbeton o'zaklar qo'shilgan, balandligi bo'yicha har 500 mmda SG – 1 gorizontal to'ri bilan armaturalangan.

Yerto'la devorlari – B 20 rusumli quyma temirbetondan.

Ramalar va o'zaklar – B 20 hamda B 25 rusumli quyma temirbetondan.

Tom orayopmalar – B 20 rusumli quyma temir betondan.

Tom qismi – tekis yumshoq turida.

4. Yong'inga qarshi texnik yechimlar.

Loyiha bo'yicha binoning yong'in – bardoshlik darajasi – II.

Binoning funktsional yong'in xavfi sinfi – F1.2, F1.3, F3.2, F3.6 va F5.2.

Binoning konstruktiv yong'in xavfi sinfi – C1.

Evakuatsiya yo'laklar va zinapoyalar bo'yicha.

Binodan favqulotda chiqishlar soni me'yoriy talablarga muvofiq.

Devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallar bilan bezatilgan.

Loyiha bo'yicha ichki yong'inga qarshi suvo'tkazgich tizimi ko'zda tutilgan.

5. Yong'inni xabarlash tizimi.

Loyiha bo'yicha ob'yektda yong'inni aniqlashni ta'minlash uchun «Bolid» kompaniyasida ishlab chiqarilgan «Orion» integrallashgan qo'riqlash tizimi jihozlari o'rnatilishi ko'zda tutilgan.

Tizim yong'inni erta bosqichida aniqlash maqsadida loyihalangan bo'lib, quyidagi xabarlash turlarini shakillantiradi:

- kirishni nazorat etish va boshqarish;
- yong'in avtomatikasini nazorat etish va boshqarish;
- ovozli xabarlash tizimi.

Binodan odamlarni evakuatsiya qilishni boshqarishga axborotni yig'ish va buyruqni uzatish singari asosiy funktsiyani «S2000 M» rusumli pult boshqarishi loyihalangan.

Tizim jihozlarini programmashtirish «S2000 – USB» interfeyslarni qayta tashkil etuvchi blok yordamida amalga oshiriladi.

Har bir blok binolarida «SHPS» rusumli yong'inni xabarlash qutilarining o'rnatilishi ko'zda tutilgan bo'lib, ularning tarkibida «S2000 – KDL» ikki simli kontrollerlarni, 12V/3A turidagi quvvatlash bloklarini, xabarlash – ishga tushirish bloklarini o'rnatish loyihalangan.

«S2000 – KDL» jihozi «Orion» integrallashgan qo'riqlash tizimi tarkibida ishlaydi.

Ikki simli aloqa kontrolleri xabarlash tizimi jihozlaridan axboratni qabul qilib operator ARMga uzatadi.

Uskunalar o'rtasidagi axborot almashinuvi uchun hamma uskunalarni RS – 485 rusumli interfeys orqali birlashtirish ko'zda tutilgan.

Yong'inni xabarlash jihozlari sifatida quyidagi uskunalarning qo'llanilishi loyihalangan:

- «Bolid» kompaniyasida ishlab chiqarilgan «DIP – 34A – 03» rusumli yong'inni xabarlash tutun detektorlari;
- «Bolid» kompaniyasida ishlab chiqarilgan «IPR 513 – 3 AM» rusumli qo'l bilan ishlatiladigan yong'inni xabarlovchi jihozlar.
- «Rubej» korhonasida ishlab chiqarilgan «OPOP 124 – 7» rusumli yorug'lik – ovozli yong'inni xabarlash detektorlari.
- «Bolid» kompaniyasida ishlab chiqarilgan «S2000 – IP – 03» rusumli issiqlikdan yong'inni xabarlash detektorlari.

6. Xarajatlar smeta hisob - kitob hujjatlari.

Binoning yakuniy smeta xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 – yil 11 – iyundagi 261 – son qarori va ShNQ 4.01.16 – 09 me'yorlariga asosan to'liq ishlab chiqilmagan.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

1. Loyihalanayotgan ob'yektning tashqi va ichki muhandislik ta'minoti bo'yicha loyihaviy yechimlar ekspertiza ko'rigidan o'tkazilmadi.
2. Buyurtmachi, mazkur ob'yekt bo'yicha tashqi muhandislik tarmoqlariga ulanish bo'yicha tegishli manfaatdor tashkilotlarning texnik shartlariga buyurtma berib, muhandislik tarmoqlariga ulanish nuqtalariga aniqlik kiritilib, kelishilsin hamda o'rnatilgan tartibda loyiha tashkilotiga ularning loyihasini ishlab chiqarish uchun buyurtmama bersin. Natijasi bo'yicha, loyiha-smeta hujjatlari ShNQ1.03.06-16 va ShNQ4.01.16-09 me'yorlariga rioya etgan holda ekspertiza ko'rigidan o'tkazish uchun taqdim etilsin.

Eslatma: Buyurtmachi tashkiloti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi 256-son qarori talablariga rioya qilinsin. Ob'yekt bo'yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish va ulardan foydalanish bo'yicha tegishli manfaatdor xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan loyiha kelishilsin.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

1. Toshkent shahar qurilish bosh boshqarmasi, loyiha – smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organing 2021 – yil 9 – dekabrda 33305 – son xulosasi (bosh reja va fasad bo'yicha 41352558 – son kelishuvi).
2. Toshkent shahar ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish boshqarmasi, Davlat ekologik ekspertizasining 2022-yil 27-maydagi 01-01/04-854-son xulosasi.
3. Eslatma: Buyurtmachi va loyiha tashkilotlari ob'yekt bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 200-son qarori talablariga qat'iy rioya qilinsin.
4. Loyiha hujjatlari buyurtmachi bilan kelishilgan. Buyurtmachining qo'shimcha taklif va e'tirozlari mavjud emas.

6. Ekspertiza natijalari.

1. Loyiha hujjatlarini ko'rib chiqish jarayonida ekspert tomonidan aniqlangan xato va kamchiliklar loyiha tashkiloti tomonidan o'zgartirish va tuzatishlar kiritilishi natijasida to'g'rilanib, qayta to'ldirildi:

2. Buyurtmachi, mazkur ob'yekt bo'yicha muhandislik tarmoqlariga ulanish bo'yicha tegishli manfaatdor tashkilotlarning texnik shartlariga buyurtma berib, muhandislik tarmoqlariga ulanish nuqtalariga aniqlik kiritilib, kelishilsin hamda o'rnatilgan tartibda loyiha tashkilotiga ularning loyihasini ishlab chiqarish uchun buyurtmama bersin. Natijasi bo'yicha, loyiha hujjatlari qayta ekspertiza ko'rigidan o'tkazish uchun ShNQ1.03.06-16 va ShNQ4.01.16-09 me'yorlari talablariga rioya etgan holda amalga oshirilsin. Shuningdek, smeta hisob – kitoblari ham binoning yakuniy smeta xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 – yil 11 – iyundagi 261 – son qarori va ShNQ 4.01.16 – 09 me'yorlari talablariga rioya qilgan holda qayta ishlab chiqilsin.

4. Buyurtmachi, ishchi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda tegishli manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 – yil 17 – sentabrdagi 579 – son qarorining 3 – bob 29 – bandiga muvofiq, Ekspertizadan o'tkazish uchun taqdim etilgan loyiha hujjatarining to'liqligi, ma'lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi.

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 – yil 20 – maydagi 321 – son qarori 3 – ilovasiga muvofiq shaharsozlik hujjatini ishlab chiqaruvchi tashkilot tomonidan qurilish ishlari butun davri davomida «Mualliflik nazorati»ni amalga oshiriishini ta'minlaydi.

7. Buyurtmachi va loyiha tashkilotiga o'rnatilgan tartibda ekspertiza tomonidan berilgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda loyiha – smeta hujjatlarini o'zgartirish talabi qo'yilgan. Agar ushbu talab bajarilmasa va loyiha-smeta hujjatlari buyurtmachiga to'liq tuzatishlarsiz berilsa, ushbu ekspertiza xulosasi haqiqiy emas deb hisoblanadi.

7. Xulosalar.

1. «Toshkent shahar Olmazor tumani, Kichik xalqa avtomobil yo'li ko'chasi, 8 – uy manzilida joylashgan «Mavjud binolarni yuridik hujjatga ega bo'lgan qismini pastki qavatida sport sog'lomlashtirish, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish binolari bo'lgan mexmonxona va ko'p qavatli turar – joy xonadonlari joylashgan majmua sifatida qayta ixtisoslashtirish va rekonstruktsiya qilish» ishchi loyihasining (Zilzilabardoshlik va yong'in xavsizligi bo'yicha) ekspertiza natijalariga asosan kelgusida o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqish, kelishish hamda tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

Bosh mutaxassis: Kosimxodjayev Saidjamoliddin Saidasrorovich